



Faxriddin YORMATOV,
TISU, Tarix kafedrası mudiri, Tarix fanlari nomzodi, dotsent
E-mail: faxriddin_yormatov@tues.uz
Nigora XUDAYAROVA,
TISU magistranti

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti professori, t.f.d A.Mavrulov taqrizi asosida

O‘ZBEKISTON VA XITOIY O‘RTASIDAGI DO‘STONA VA STRATEGIK HAMKORLIK ALOQALARINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Annotsatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining Xitoy Xalq Respublikasi bilan 1991–2025-yillar davomida shakllangan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hamkorligi ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotda ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik aloqalar bosqichlari, iqtisodiy sheriklik yo‘nalishlari, madaniy almashinuv va ta‘lim sohasidagi integratsiya jarayonlari o‘rganilgan. Shuningdek, “Bir kamar – bir yo‘l” tashabbusi doirasida amalga oshirilgan hamkorlik loyihalari tahlil etilib, kelgusidagi istiqbolli yo‘nalishlar yuzasidan tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Xitoy, hamkorlik, siyosiy aloqalar, iqtisodiy sheriklik, madaniyat, “Bir kamar – bir yo‘l”, strategik sheriklik.

STAGES OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF FRIENDLY AND STRATEGIC COOPERATION RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA

Annotation

This article analyzes the political, socio-economic, and cultural cooperation between the Republic of Uzbekistan and the People's Republic of China from 1991 to 2025. It explores the stages of diplomatic relations, directions of economic partnership, and cultural as well as educational exchanges between the two countries. The study also examines the cooperation projects implemented within the framework of the “Belt and Road” initiative and provides recommendations for future strategic directions.

Key words: Uzbekistan, China, cooperation, political relations, economic partnership, culture, Belt and Road, strategic partnership.

ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ДРУЖЕСТВЕННЫХ И СТРАТЕГИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ

Аннотация

В данной статье проводится научный анализ политического, социально-экономического и культурного сотрудничества между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой в период с 1991 по 2025 годы. Рассмотрены этапы дипломатических отношений, направления экономического партнерства, а также процессы культурного и образовательного обмена. В работе также анализируются совместные проекты в рамках инициативы «Один пояс — один путь» и представлены рекомендации по перспективным направлениям сотрудничества.

Ключевые слова: Узбекистан, Китай, сотрудничество, политические отношения, экономическое партнерство, культура, «Один пояс – один путь», стратегическое партнерство.

Kirish. XX asrning oxirida sobiq ittifoqning parchalanganidan so‘ng, mustaqil davlat sifatida shakllangan O‘zbekiston Respublikasi o‘zining tashqi siyosat konsepsiyasini qayta ko‘rib chiqdi. Shu jarayonda mamlakatning geosiyosiy o‘rni, tarixiy va madaniy qadriyatları asosida turli davlatlar bilan yangi hamkorlik aloqalari o‘rnatila boshlandi.

Ular orasida Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) bilan o‘zaro munosabatlar strategik ahamiyat kasb etdi. Bu hamkorlik O‘zbekistonning mustaqillik davrida xalqaro maydondagi mavqei mustahkamlash, iqtisodiy va madaniy aloqalarini kengaytirish, shuningdek, Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992 yil 2 yanvarda o‘rnatilgan bo‘lib, bu ikki xalq o‘rtasidagi qadimiy tarixiy, savdo va madaniy aloqalarning yangi bosqichda davom etishiga imkon yaratdi. Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq O‘zbekiston rahbariyati Xitoy bilan siyosiy hamkorlikni chuqurlashtirish, iqtisodiy sheriklikni kengaytirish va madaniy almashinuvni yo‘lga qo‘yish orqali

ikki davlat o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlashga intildi. So‘nggi o‘ttiz yil davomida O‘zbekiston–Xitoy munosabatlari ko‘p qirrali hamkorlik shaklida rivojlandi. 2005 yilda “O‘zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi do‘stlik, hamkorlik va sheriklik to‘g‘risidagi shartnoma” imzolanishi ikki davlat o‘rtasidagi strategik aloqalarning mustahkam asosini yaratdi. 2022 yilda esa bu munosabatlar “Yangi davrda har tomonlama strategik sheriklik” darajasiga ko‘tarildi. Ushbu bosqich siyosiy ishonchning ortishi, iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashuvi va madaniy aloqalarning kengayishi bilan xarakterlanadi.

Tahlil va natija. Bugungi kunda Xitoy O‘zbekistonning eng yirik iqtisodiy hamkorlaridan biri bo‘lib, ikki mamlakat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 2024 yil yakunlariga ko‘ra 14 milliard AQSH dollaridan oshgan. Shu bilan birga, madaniy, ta‘lim va turizm sohalaridagi hamkorlik ham izchil rivojlanmoqda. Toshkent va Samarqand shaharlarida faoliyat yuritayotgan Konfutsiy institutlari, o‘zbek talabalarining Xitoy universitetlarida ta‘lim olayotgani, shuningdek, Xitoyda o‘zbek madaniyati kunlarining

o'tkazilishi – bu hamkorlikning yangi bosqichini namoyon etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – 1991–2025 yillar davomida O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy hamkorlik jarayonlarini ilmiy tahlil qilish, uning tarixiy asoslari, bosqichlari va istiqbollari aniqlashdan iborat. Maqolada ikki mamlakat o'rtasidagi strategik manfaatlar uyg'unligi, o'zaro iqtisodiy aloqalar, madaniy almashinuv hamda xalq diplomatiyasi mexanizmlarining roli ochib beriladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, 1991-yildan boshlab Xitoy Xalq Respublikasi bilan munosabatlar siyosiy jihatdan tez rivojlanishga kirishdi. Xitoy O'zbekiston mustaqilligini tan olganidan so'ng, diplomatik aloqalar darhol yo'lga qo'yildi va ikki tomonlama siyosiy ishonchni mustahkamlash, mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash yo'llarini izlash boshlandi. 2005 yil 25 mayda Pekinda "Do'stlik, hamkorlik va sheriklik shartnomasi" imzolandi; bu hujjat O'zbekiston-Xitoy aloqalarini siyosiy-huquqiy jihatdan mustahkam poydevor yaratdi. Shartnoma ikki davlat o'rtasidagi suverenitet va hududiy yaxlitlik, suveren davlatlarning bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik tamoyillari hamda o'zaro manfaatli siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlikni kengaytirish yo'lini belgiladi. 2017 yilda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoyga davlat tashrifi chog'ida "Belt and Road Initiative" (Bir kamar — bir yo'l) doirasida ikki tomonlama hamkorlik strategiyalarini uyg'unlashtirishga va amaliy loyihalarni kengaytirishga kelishib olindi. Bu tashabbus O'zbekistonning transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish, savdo yo'llarini yaxshilash, investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha muhim imkoniyatlar yaratdi. Xitoy bo'yicha O'zbekiston siyosiy manfaatlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir necha marta bayonotlar berildi.

Masalan, O'zbekiston "Bir Xitoy" siyosatini qo'llab-quvvatlaydi va Taiwan masalasida Xitoyning suverenitetini tan oladi. Hamkorlik SHHT (Shanxay Hamkorlik Tashkiloti) hamda boshqa ko'p tomonlama maydonlarda ham faollashtirildi. 2005 yilgi shartnoma bilan birga, terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash, mintaqaviy xavfsizlikning mustahkamlanishi siyosiy hamkorlikda muhim yo'nalishlardan biri sifatida ajralib turdi. 2007 yildan boshlab, Xitoy va O'zbekiston rasmiy tashriflar va siyosiy maslahatlar davraga tez-tez aylanib, ikki davlat o'rtasidagi siyosiy dialog kengayib bordi. Masalan, 2007 yil 3 noyabrda Xitoy Premyer-Ven Jiabao Tashkentga tashrif buyurgan va ikki davlat "2005-yilgi Do'stlik va Hamkorlik Shartnomasi" doirasida aloqalarni mustahkamlash bo'yicha kelishuvga erishilgan. 2013-yildan boshlab Xitoy tomonidan ilgari surilgan "Bir kamar – bir yo'l" (Belt and Road Initiative) tashabbusi O'zbekiston uchun ham yangi imkoniyatlar ochdi. 2017-yil 12-may kuni Prezident Shavkat Mirziyoyevning Pekinga davlat tashrifi chog'ida bu tashabbus doirasida hamkorlikni kengaytirish, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish masalalari bo'yicha muhim kelishuvlarga erishildi. O'zbekiston "Bir Xitoy" siyosatini tan oladi va Xitoyning hududiy yaxlitligini hurmat qilish tamoyiliga qat'iy rioya etadi. Shu bilan birga, Xitoy O'zbekistonning ichki barqarorlik va mustaqil siyosat yuritish huquqini qo'llab-quvvatlaydi.

2022-yil 15-sentabrda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvda Prezident Shavkat Mirziyoyev va Si Szinpin ikki davlat munosabatlarini "Yangi davrda har tomonlama strategik sheriklik" darajasiga ko'tarish to'g'risida qo'shma bayonot imzoladilar. Uchrashuvda siyosiy ishonchni mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi kurash, raqamli iqtisodiyot va "yashil energetika" sohasida hamkorlikni rivojlantirish muhim yo'nalish sifatida belgilandi. 2023-yil 19-may kuni Xitoyga rasmiy tashrif davomida 2023–2027-yillar

uchun "Har tomonlama strategik sheriklikni rivojlantirish dasturi" qabul qilindi.

Dastur doirasida umumiy qiymati 25 milliard AQSH dollaridan ortiq 30 dan ziyod loyihalar bo'yicha kelishuvlarga erishildi. 2024-yilda Pekinda davlat rahbarlarining uchrashuvi chog'ida "All-weather Comprehensive Strategic Partnership" (barqaror sharoitlarda ham strategik hamkorlik) tushunchasi ilgari surildi. Bu ibora ikki mamlakat o'rtasidagi siyosiy hamkorlikning izchilligi va uzoq muddatli strategik yo'nalishini ifodalaydi. 2025-yilga kelib O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi siyosiy muloqotlar SHHT, BMT hamda "Markaziy Osiyo – Xitoy" formatlarida yanada faollashdi.

Tashqi ishlar vazirliklari darajasida o'tkazilayotgan muntazam maslahatlashuvlar ikki davlat o'rtasidagi siyosiy ishonchni mustahkamlab, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi ijtimoiy va iqtisodiy hamkorlik mustaqillik yillarida tobora kengaydi. 1992-yildan boshlab ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash, investitsiyalar va ijtimoiy soha loyihalari doimiy ravishda oshib bordi. 1990-yillar o'rtalarida O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi savdo hajmi nisbatan kichik bo'lsa-da, o'ttiz yillik davrda bu ko'rsatkich sezilarli darajada oshdi. 2000-yillardan boshlab Xitoy O'zbekistonning eng yirik savdo sheriklaridan biriga aylandi. 2024-yil yakunlariga ko'ra, ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 14 milliard AQSH dollarini tashkil etdi. Shuningdek, Xitoyning O'zbekistondagi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari ko'paydi. 2017–2023-yillar davomida Xitoy kompaniyalari 20 dan ortiq yirik energetika, transport, sanoat va qishloq xo'jaligi loyihalariga sarmoya kiritdi. Ijtimoiy sohada ham aloqalar kengayib bordi.

Xitoyning Konfutsiy institutlari Toshkent va Samarqandda faoliyat yuritadi va o'zbek yoshlarini Xitoy tilini o'rganishi, madaniy almashuv imkoniyatlari bilan ta'minlaydi. Shuningdek, O'zbekiston talabalari Xitoyning yetakchi universitetlarida tahsil olmoqda, bu esa ikki davlat o'rtasidagi ilmiy va ta'limiy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. 2023-yilda O'zbekiston va Xitoy universitetlari o'rtasida 15 ta yangi memorandumlar imzolandi. "Bir kamar — bir yo'l" tashabbusi doirasida O'zbekiston va Xitoy transport va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilishda hamkorlik qilmoqda. Toshkent–Xitoy temir yo'l liniyasi, avtomobil yo'llari, aeroportlar va logistika markazlaridagi loyihalar ikki mamlakat o'rtasidagi savdo va ijtimoiy hamkorlikni mustahkamladi. 2022–2025 yillarda Xitoy va O'zbekiston o'rtasida ijtimoiy soha bo'yicha ham qo'shimcha kelishuvlar amalga oshirildi: shaharlar va viloyatlar o'rtasida tajriba almashish, sog'liqni saqlash, raqamli iqtisodiyot va ekologik loyihalar doirasida memorandumlar imzolandi. 1991–2025-yillar davomida O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi ijtimoiy va iqtisodiy hamkorlik strategik sheriklikni mustahkamlashga xizmat qildi. Savdo hajmining oshishi, investitsiyalar, ilmiy va madaniy almashuv hamda transport va energetika infratuzilmasi loyihalari ikki davlat o'rtasidagi ishonchli va barqaror aloqalarni yaratdi.

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi madaniy aloqalar mustaqillik yillarida yangi bosqichga ko'tarildi. Madaniy hamkorlik ikki davlat o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy sheriklikni mustahkamlash, xalqlararo do'stlik va o'zaro tushunishni rivojlantirishga xizmat qiladi. 2006-yildan boshlab Xitoyning Konfutsiy institutlari Toshkent va Samarqand shaharlarida faoliyat yuritish boshlandi. Bu institutlar orqali o'zbek yoshlarining Xitoy tilini o'rganish imkoniyatlari kengaydi, shuningdek, ikki davlat madaniy merosi va urf-odatlarini o'rganish uchun ilmiy va madaniy tadbirlar tashkil etildi. O'zbekiston talabalari Xitoy universitetlarida tahsil olish orqali nafaqat til va texnologiya sohasida bilim olishdi, balki xalqaro tajriba va ilmiy hamkorlikni rivojlantirishga hissa qo'shdi. 2017–2023-yillarda 20 dan ortiq ilmiy loyihalar va

ijtimoiy tadqiqotlar amalga oshirildi, 2023-yilda esa 15 ta yangi memorandumlar imzolandi. O'zbekiston va Xitoy madaniy elchixonasi va madaniyat markazlari doimiy ravishda madaniy tadbirlar o'tkazadi: Xitoy madaniyati kunlari, film va teatr festivallari, san'at va musiqiy konsertlar.

Masalan, 2022–2024-yillarda Samarqand va Toshkent shaharlarida Xitoy madaniyati haftalik festivallari muvaffaqiyatli o'tkazildi. Madaniy hamkorlik ikki davlat turizmini rivojlantirishga ham xizmat qilmoqda. Xitoylik turistlar soni 2024-yil yakunlariga ko'ra 120 ming kishidan oshdi. Shu bilan birga, O'zbekistonning tarixiy shaharlarida (Samarqand, Buxoro, Xiva) Xitoy madaniy festivallari va ko'rgazmalar o'tkazilishi xalqlararo do'stlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. 2022-yildan boshlab madaniy hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi. Samarqandda bo'lib o'tgan Prezidentlar uchrashuvida ikki davlat madaniyat vazirliklari o'rtasida qo'shma loyihalar, film va san'at almashinuvlari, ilmiy konferensiyalarni tashkil etish bo'yicha memorandumlar imzolandi. 2023-yilda Xitoyda o'zbek madaniyati haftaligi muvaffaqiyatli o'tkazildi, bu O'zbekiston madaniy merosini Xitoy aholisi bilan yaqindan tanishtirishga xizmat qildi. 1991–2025-yillar davomida O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi madaniy hamkorlik doimiy rivojlanib, ikki xalq o'rtasida do'stlik va o'zaro tushunishni mustahkamladi. Konfutsiy institutlari, talaba va ilmiy almashinuvlar, madaniy festival va tadbirlar hamkorlikning mustahkam poydevorini yaratdi. Shu

bilan birga, madaniy hamkorlik turizm, xalqaro festival va ilmiy loyihalar orqali ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklikni qo'llab-quvvatladi. 1991–2025-yillar davomida O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hamkorlik izchillik bilan rivojlandi.

Diplomatik aloqalar mustahkamlandi, ikki tomonlama shartnomalar va strategik sheriklik asoslari yaratildi. Siyosiy sohada O'zbekiston va Xitoy o'rtasida suverenitet, hududiy yaxlitlik va mintaqaviy barqarorlik tamoyillari doimiy qo'llab-quvvatlandi.

Xulosa. Iqtisodiy hamkorlik doirasida savdo hajmi oshdi, Xitoyning to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari ko'plab yirik loyihalarni moliyalashtirdi. Transport-logistika, energetika va qishloq xo'jaligi sohasidagi qo'shma loyihalar ikki mamlakat manfaatlariga xizmat qildi.

Madaniy aloqalar Konfutsiy institutlari, talaba va ilmiy almashinuvlar, madaniy festival va tadbirlar orqali mustahkamlandi. Shu bilan birga, turizm sohasidagi hamkorlik xalqlararo do'stlikni rivojlantirdi va O'zbekiston madaniy merosini Xitoy aholisi bilan yaqindan tanishtirdi. 2022–2025-yillarda siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida yangi bosqich boshlangan bo'lib, bu davrda "Yangi davrda har tomonlama strategik sheriklik" konsepsiyasi asosida qo'shma investitsion, ilmiy, madaniy va ijtimoiy loyihalar amalga oshirildi. Bu ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni nafaqat mustahkamladi, balki uzoq muddatli strategik hamkorlikni kafolatlandi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. O'zbekistonning tashqi siyosat konsepsiyasi. – Toshkent, 2012.
2. O'zbekiston Respublikasining Xitoydagi elchixonasi. Do'stlik va hamkorlik shartnomasi, 2005. – Pekin, 2005 UZA.
3. O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi har tomonlama strategik sheriklik yangi davrda. 2022-yil, 15-sentabr. <https://uza.uz>
4. O'zbekiston Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. O'zbekiston – Xitoy savdo statistikasi, 2024. – Toshkent, 2025.
5. Si Tszinpin O'zbekiston bilan "Bir kamar, bir yo'l" qurilishida keng hamkorlik qilishga undadi. Sinxua, 2017 yil 12 may.
6. Joint Communiqué Between the Government of the People's Republic of China and the Government of the Republic of Uzbekistan, MFA China, 2007.